Muhammadiyev Zarrux Umarovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
mukhammadiev90@mail.ru
Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi
bahodirovamadinabonu4@gmail.com

SAVDO KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Anotatsiya: Ushbu maqolada savdo korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xarajatlar hisobining to'g'ri tashkil etilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Maqolada xarajatlar hisobining mavjud holati tahlil qilinib, uning asosiy kamchiliklari va muammoli tomonlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: xarajatlar hisobi, xarajatlarni tasniflash, boshqaruv hisobi, xarajatlar tahlili, moliyaviy nazorat, budjetlashtirish, hisob metodologiyasi, ichki audit.

Abstract: This article studies the issues of improving cost accounting in commercial enterprises from a scientific, theoretical and practical perspective. In the conditions of a modern market economy, the correct organization of cost accounting is of crucial importance in ensuring the financial stability of commercial enterprises. The article analyzes the current state of cost accounting and identifies its main shortcomings and problematic aspects.

Keywords: cost accounting, cost classification, management accounting, cost analysis, financial control, budgeting, accounting methodology, internal audit.

Kirish. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo korxonalari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan ularning xarajatlarini to'g'ri hisobga olish va boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Raqobat muhitining kuchayishi, iste'molchilar talabining o'zgaruvchanligi va iqtisodiy vaziyatning beqarorligi sharoitida korxona xarajatlarini optimal darajada saqlash, ularni aniq va ishonchli hisobga olish nafaqat rentabellikni ta'minlash, balki korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun ham zaruriy shart hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni savdo korxonalarida xarajatlar hisobini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Qabul qilingan qonunchilik hujjatlari, jumladan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy bazaning

yangilanishi korxonalarda hisob siyosatini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Ammo amaliyotni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, savdo korxonalarining aksariyatida xarajatlarni tasniflash, ularni hisob ob'ektlari bo'yicha guruhlash va boshqaruv maqsadlarida foydalanish tizimi hali ham takomillashtirishni talab etadi. Xarajatlarning noto'g'ri va to'liq hisobga olinmasligi, ularni tasniflashdagi tizimli yondashuv etishmasligi natijasida boshqaruv qarorlarining sifati pasayadi, moliyaviy natijalar noto'g'ri aks ettiriladi hamda soliq va moliyaviy hisobot ishonchliligi zaiflashadi.

Ushbu muammolarning mavjudligi savdo korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini belgilab beradi. Shu bois ushbu maqolaning maqsadi — savdo korxonalarida xarajatlar hisobining mavjud holatini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Savdo korxonalarida xarajatlar hisobini takomillashtirish masalasi xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli metodologik yondashuvlar asosida keng o'rganilgan. Ushbu bo'limda tadqiqot mavzusiga oid asosiy ilmiy manbalar to'rtta yo'nalish bo'yicha tizimli tahlil qilingan: xalqaro standartlar talablarini asoslovchi nazariy manba lar; xarajatlarni boshqarish metodologiyasi bo'yicha asarlar; rivojlanayotgan bozorlar va O'zbekistonga oid empirik tadqiqotlar; raqamli texnologiyalar va ERP tizimlarini joriy etish bo'yicha amaliy adabiyotlar.

Savdo korxonalarida xarajatlar hisobining me'yoriy asosini birinchi navbatda IASB tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar tashkil etadi. Bu standartlar nafaqat huquqiy talablarni, balki nazariy asoslarni ham belgilaydi.

Scott (2020) "Financial Accounting Theory" asarida xarajatlarni tan olish tamoyillarining axborot assimetriyasi nazariyasi bilan bog'liqligini o'rganadi. U akrual hisob (accrual accounting) ning savdo korxonalari uchun naqd pul hisobiga (cash basis) nisbatan ancha to'liq va ishonchli moliyaviy rasm berishini nazariy jihatdan asoslab, xarajatlarni davr bo'yicha to'g'ri taqsimlashning investorlar va kreditorlar uchun qarorlar qabul qilishdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Scott shuningdek daromadni keltirib chiqaruvchi xarajatlarni daromad bilan bir davrda tan olish (matching principle) tamoyilini savdo sektorida qo'llashning amaliy muammolarini, xususan mavsumiy savdo va kechiktirilgan xarajatlar holatlarini ko'rib chiqadi.

Xarajatlarni boshqarish bo'yicha nazariy va amaliy adabiyotlar savdo korxonalari uchun bir qator muhim metodologik yondashuvlarni taklif etadi.

Drury (2018) "Management and Cost Accounting" asarida savdo va xizmat

ko'rsatish korxonalarida xarajatlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini keng ko'lamda o'rganadi. U savdo korxonalari uchun xarajat tasnifining eng samarali usuli sifatida funktsional yondashuvni — ya'ni savdo, logistika, ma'muriy va moliyaviy xarajatlarni alohida kuzatishni — tavsiya etadi. Drury shuningdek savdo korxonalarida o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarni ajratishning strategik ahamiyatini ko'rsatib, doimiy xarajatlarning yuqori ulushi (operatsion leverage) savdo hajmi kamayganida foyda ko'rsatkichiga qanchalik salbiy ta'sir ko'rsatishini miqdoriy tahlil bilan asoslaydi.

Horngren, Datar va Rajan (2021) "Cost Accounting: A Managerial Emphasis" asarida savdo korxonalari uchun CVP tahlilini qo'llashning amaliy jihatlarini batafsil ko'rib chiqib, zararsizlik nuqtasi, xavfsizlik zaxirasi va maqsadli foyda hisoblash metodikasini savdo sektori misollarida tushuntiradilar. Ular tovar guruhlari bo'yicha differensial tahlilning noto'g'ri boshqaruv qarorlarini oldini olishdagi roliga alohida e'tibor qaratib, "soxta foyda" (phantom profit) hodisasini — ya'ni umumxo'jalik xarajatlarini noto'g'ri taqsimlash natijasida zarar ko'rayotgan bo'limning foydali ko'rinishi — savdo korxonalarida keng tarqalgan muammo sifatida ko'rsatadilar. Shuningdek ular savdo korxonalari uchun standart xarajatlash (standard costing) ni, xususan tovar xarid narxi og'ishi (purchase price variance) va samaradorlik og'ishi (efficiency variance) ni hisoblashni amaliy misollarda tushuntirib beradilar.

Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotlaridagi savdo korxonalari uchun xarajatlar hisobining o'ziga xos muammolari mahalliy va mintaqaviy tadqiqotlarda alohida ko'rib chiqilgan.

Yusupov va Raximov (2022) O'zbekiston savdo korxonalarida xarajatlarni boshqarish va hisobga olishning zaif tomonlarini empirik so'rovnoma va moliyaviy hisobot tahlili orqali o'rganib, bir qator muhim natijalar erishishgan. Tadqiqotda korxonalarning 67 foizida sotilgan tovarlar tannarxiga transport xarajatlari kiritilmasligi, 74 foizida boshqaruv hisobi tizimi umuman yo'qligi va 81 foizida tovar guruhlari bo'yicha alohida rentabellik hisobi yuritilmasligi aniqlangan. Mualliflar savdo sektorida boshqaruv hisobining rivojlanmaganligini nafaqat texnik, balki tashkiliy madaniyat muammosi sifatida ham ko'rib chiqadilar. Ularning xulosasiga ko'ra, aksariyat savdo korxonalari egasi yoki rahbari hisob tizimini faqat soliq organlari uchun zarur majburiyat sifatida ko'radi, strategik boshqaruv vositasi sifatida emas. Bu mentalitet o'zgarishi boshqaruv hisobini joriy etishning eng asosiy to'sig'i hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Savdo korxonalari iqtisodiyotning real sektori bilan iste'molchilar o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Ushbu korxonalarda xarajatlar hisobi ishlab chiqarish korxonalaridan tubdan farq qiladi, chunki savdo korxonalari mahsulot yaratmaydi, balki tayyor tovarlarni sotib olib, ularni oxirgi iste'molchilarga

yetkazib beradi. Shu sababli savdo korxonalarida xarajatlar tarkibi, ularni tasniflash tizimi va hisobga olish metodologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Iqtisodiy nazariyada xarajat (expense) deganda korxona tomonidan daromad olish maqsadida sarflangan va hisobot davrida foyda va zarar hisobvarag'iga silingan resurslar tushuniladi. IAS 1 "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" standarti bo'yicha xarajat — aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi, yoxud majburiyatlarning paydo bo'lishi bo'lib, u hisobot davri davomida kapitalning kamayishiga olib keladi, ammo aksiyadorlar bilan operatsiyalardan tashqarida bo'ladi.

Savdo korxonalarida xarajatlarning moliyaviy boshqaruv nuqtai nazaridan tasniflanishi quyidagicha amalga oshiriladi.

Funktsional belgi bo'yicha savdo xarajatlari sotilgan tovarlar tannarxiga, savdo-sotiq xarajatlariga, ma'muriy-boshqaruv xarajatlariga va moliyaviy xarajatlarga bo'linadi. Xulq-atvor belgisi bo'yicha xarajatlar o'zgaruvchan (savdo hajmiga proporsional — transport, qadoqlash, sotuvchilar komissiyasi), doimiy (savdo hajmidan mustaqil — ijara, amortizatsiya, ma'muriy xodimlar ish haqi) va aralash xarajatlarga (yarim doimiy yoki yarim o'zgaruvchan — kommunal xarajatlar, telefon) bo'linadi. Bog'liqlik belgisi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (aniq tovar guruhi yoki bo'limga bevosita bog'liq) va bilvosita xarajatlar (bir nechta bo'lim yoki tovar guruhi o'rtasida taqsimlanadigan umumiy xarajatlar) farqlanadi. Vaqt belgisi bo'yicha joriy (hisobot davrida silinuvchi) va kechiktirilgan (keyingi davrlarga taalluqli — kechiktirilgan xarajatlar hisobvaraqlarida saqlanadigan) xarajatlar ajratiladi.

Savdo korxonalari uchun eng muhim xarajat turi — savdo tannarxi yoki sotilgan tovarlar tannarxi (STT) hisoblanadi. IAS 2 "Zaxiralar" standarti bo'yicha sotilgan tovarlar tannarxiga xarid narxi, bojxona to'lovlari, transport-yetkazib berish xarajatlari va xarid qilishga bevosita bog'liq boshqa xarajatlar kiradi.

IFRS 16 "Ijaralar" standarti savdo korxonalari uchun ayniqsa muhim, chunki ular ko'pincha do'kon va ombor binolarini ijaraga oladilar. IFRS 16 bo'yicha ijara muddati 12 oydan ortiq bo'lsa, ijara oluvchi balansida foydalanish huquqi aktivi (ROU asset) va ijara majburiyati tan olinishi shart. Bu holat savdo korxonasining xarajatlar tarkibiga sezilarli o'zgartirishlar kiritadi: ijara to'lovi o'rniga amortizatsiya xarajati (ROU aktivning amortizatsiyasi) va foiz xarajati (ijara majburiyatining foizi) paydo bo'ladi.

Savdo korxonalarida eng keng tarqalgan muammo — sotilgan tovarlar tannarxining (STT) noto'g'ri shakllantirilishidir. IAS 2 bo'yicha tovarlarning sotib olish tannarxiga quyidagilar kirishi shart: tovarlarning xarid narxi (chegirmalar va bonuslarni chiqarib tashlagan holda); import bojxona to'lovlari va soliqlar (keyinchalik

qaytariladiganlardan tashqari); transport va yetkazib berish xarajatlari; tovarni joriy joyiga va holatiga keltirish uchun zarur bo'lgan boshqa bevosita xarajatlar.

Biroq amaliyotda savdo korxonalarining katta qismi transport xarajatlarini, ortiq-kamliklarni sug'urtalash xarajatlarini va hatto bojxona rasmiylashtiruv xarajatlarining bir qismini alohida joriy xarajat sifatida silibormoqda. Natijada tovarlar omborda arzonroq qiymatda hisobda aks etadi, sotilganda esa tannarx past ko'rinadi, foyda esa sun'iy ravishda yuqori ko'rsatiladi.

IFRS 15 "Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha daromadlar" standarti bo'yicha savdo chegirmalari va bonuslar daromadning bir qismi hisoblanib, daromaddan ayirib tashlash yo'li bilan aks ettirilishi shart. Biroq ko'plab savdo korxonalari chegirmalarni alohida xarajat (masalan, "savdo xarajatlari" tarkibida) sifatida aks ettiradi. Natijada yalpi daromad (gross revenue) va sof daromad (net revenue) o'rtasidagi farq yo'qoladi, xarajatlar esa haddan tashqari yuqori ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, savdoning oxirida mijozlarga beriladigan hajmga asoslangan chegirmalar (retrospective volume discounts, rebates) haqida hisobot davri oxirida qancha chegirma berilishini oldindan baholash va tegishli zaxira (accrual) tan olish talab etiladi. Bu amaliyot O'zbekiston savdo korxonalarida deyarli yo'q.

Savdo tarmog'i bo'lgan yirik savdo korxonalarida (masalan, bir nechta do'koni bo'lgan tarmoq) umumxo'jalik xarajatlarini — bosh ofis xarajatlari, umumiy reklama, IT xarajatlari — do'konlar yoki bo'limlar o'rtasida taqsimlash zarur. Noto'g'ri yoki taqsimlash bo'lmagan taqdirda har bir do'kon yoki bo'limning haqiqiy rentabelligini aniqlash mumkin emas: ayrim bo'limlar foydaliroq ko'rinadi, ayrimlari esa zarar ko'rayotgandek ko'rsatiladi, holbuki aslida aksincha bo'lishi mumkin.

Savdo korxonalarida tovarlarning bir qismi saqlash, tashish va sotish jarayonida yo'qoladi, eskiradi yoki yaroqsiz holga keladi. Bu yo'qotishlarning bir qismi tabiiy (normativ doirasida) hisoblanadi va tannarxning ajralmas qismidir. Normativdan ortiq yo'qotishlar esa joriy xarajat sifatida hujjatlashtirilishi shart.

Amaliyotda esa ko'plab savdo korxonalari yo'qotishlarni inventarizatsiya akt bilan rasmiylashtirmaydi, hujjatsiz silib tashlaydi yoki umuman hisobda aks ettirmaydi. Bu holat soliq organlarining e'tiroziga sabab bo'ladi, chunki hujjatlanmagan yo'qotishlar soliqdan chegirib tashlanadigan xarajat sifatida qabul qilinmaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar shakllandi.

1. Sotilgan tovarlar tannarxini shakllantirishdagi tizimli xatolar. So'rovda qatnashgan 20 ta savdo korxonasining 14 tasi, ya'ni 70 foizi, transport va logistika xarajatlarini tovarlar tannarxiga kiritmasdan, ularni joriy savdo yoki boshqa xarajatlar

sifatida silibormoqda. Bu holat IAS 2 talablarini to'g'ridan-to'g'ri buzadi va brutto foyda ko'rsatkichini 3—6% gacha sun'iy oshiradi. Tovarlar tannarxini noto'g'ri shakllantirish narx siyosatini belgilashda, tovar guruhlari rentabelligini baholashda va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jiddiy xatoliklarga olib keladi.

2. IFRS 16 ning savdo ijaralariga tatbiq etilmasligi. Tadqiqotda so'rovdagi barcha 20 ta korxona, ya'ni 100 foizi, do'kon va ombor binolari ijarasini to'liq joriy xarajat sifatida aks ettirib, balanslarida foydalanish huquqi aktivlari (ROU assets) va ijara majburiyatlarini tan olmasligи aniqlandi. Bu holat EBITDA ko'rsatkichini 15—30% gacha sun'iy oshirib, aktivlar va majburiyatlar hajmini sezilarli past ko'rsatadi. Natijada kredit muassasalari va investorlar uchun moliyaviy holat noto'g'ri baholanadi.

3. Savdo chegirmalari va bonuslarni noto'g'ri hisobga olish. Korxonalarning 80 foizi savdo chegirmalarini IFRS 15 talablariga muvofiq daromaddan ayirish o'rniga xarajat sifatida aks ettirmoqda. Bu yalpi daromad ko'rsatkichini 3—8% gacha oshirib ko'rsatadi. Bundan tashqari, 90 foiz korxonada tovarlarni qaytarish ehtimoli uchun zaxira (provision) tan olinmayapti, bu esa hisobot davri oxirida xarajatlar va majburiyatlarning to'liq aks ettirilmasligiga olib keladi.

4. Xodimlar xarajatlarini funktsional jihatdan tasniflashning yo'qligi. So'rovdagi korxonalarning 85 foizida barcha xodimlar ish haqi bitta hisobvaraqda yig'iladi va moliyaviy hisobotda "ish haqi xarajatlari" deb bitta qatorda ko'rsatiladi. Savdo va ma'muriy xodimlar ish haqini alohida tasniflashning yo'qligi boshqaruv tahlilini cheklab, KPI tizimini joriy etishga, bo'limlar samaradorligini taqqoslashga va xodimlar resurslarini optimal taqsimlashga to'sqinlik qiladi.

5. Umumxo'jalik xarajatlarini bo'limlar bo'yicha taqsimlamaslik. So'rovdagi korxonalarning 90 foizida umumxo'jalik xarajatlari do'konlar yoki tovar guruhlari bo'yicha taqsimlanmaydi. Bu holat har bir bo'lim yoki filialning haqiqiy rentabelligini aniqlash imkonini bermaydi. Amaliyotda zarar ko'rayotgan bo'limlar ko'pincha aniqlanmaydi va umumiy foyda hisobiga yashirin subsidiyalanadi, bu esa resurslarni noto'g'ri taqsimlashga va strategik boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Tovarlar tannarxini IAS 2 talablariga to'liq moslashtirish. Barcha savdo korxonalari tovarlar tannarxini shakllantirish siyosatini qayta ko'rib chiqib, quyidagi xarajatlarni majburiy ravishda tannarxga kiritsin: xarid bilan bevosita bog'liq transport va yetkazib berish xarajatlari; bojxona rasmiylashtiruv to'lovlari va import boji (keyinchalik qaytarilmaydigan qismi); sug'urtalash xarajatlari (tranzit va saqlash

jarayonida); tovarlarni sifat tekshiruvidan o'tkazish xarajatlari.

Buning uchun hisobot tizimida transport va logistika xarajatlarini tannarxga kiritish uchun alohida hisobvaraq (2900.01 "Tovarlarni sotib olish bilan bog'liq transport xarajatlari") kiritilsin. Har oyda transport xarajatlarining tovar xaridlari hajmiga nisbatini hisoblash va ushbu koeffitsient asosida ombordagi qolgan tovarlar tannarxiga ulush ajratish tartibi joriy etilsin.

2. IFRS 16 talablarini bosqichma-bosqich joriy etish. Do'kon va ombor binolarini uzoq muddatli ijaraga olgan savdo korxonalari quyidagi tartibda IFRS 16 ni joriy etsin. Birinchi bosqich — inventarizatsiya (1 oy): barcha ijara shartnomalari ro'yxatga olinsin; ijara muddati, yillik to'lov miqdori va opsiya shartlari aniqlansin. Ikkinchi bosqich — ROU aktivlari va ijara majburiyatlarini hisoblash (1—2 oy): har bir ijara shartnomasi bo'yicha kichik diskontlash stavkasi (incremental borrowing rate) aniqlansin; ijara davri bo'yicha majburiyatning joriy qiymati va ROU aktivning boshlang'ich qiymati hisoblansin. Uchinchi bosqich — hisobot tizimida aks ettirish (1 oy): 0800 "Foydalanish huquqi aktivlari" sub-hisobvarag'i; 7200 "Ijara majburiyatlari" (joriy qism) va 7800 (uzoq muddatli qism) hisobvaraqlari ochilsin; amortizatsiya va foiz xarajatlarini avtomatik hisoblash sozlansin.

3. Savdo chegirmalari va qaytarishlarni IFRS 15 bo'yicha hisobga olish. Savdo chegirmalari va bonuslarni to'g'ri aks ettirish uchun quyidagi tartib joriy etilsin: har bir shartnomadagi hajmga asoslangan chegirmalar (volume rebates) hisobot davri oxirida baholanib, zaxira sifatida tan olinsin; qaytarish ehtimoli yuqori tovar guruhlari uchun tarixiy ma'lumotlarga asoslanib "Qaytarish zaxirasi" (provision for returns) hisobot sanasida hisoblash va tan olish majburiy qilinsin; savdo chegirmalari daromaddan ayirib taqdim etilib, xarajat sifatida ko'rsatilmasin.

Provodka namunasi: chegirma uchun zaxira tan olinishi — Dr. 9010 "Savdo chegirmalari" — Cr. 6900 "Qaytarish va chegirmalar bo'yicha zaxira"; qaytarilgan tovar qabul qilinganda — Dr. 2100 "Tovarlar" — Cr. 4010 "Xaridorlar bilan hisob-kitoblar" va Dr. 6900 — Cr. 9010 (zaxirani qaytarish).

4. Inventar yo'qotishlarini hujjatlashtirish tizimini joriy etish.Inventar yo'qotishlarini to'liq huquqiy va moliyaviy jihatdan to'g'ri aks ettirish uchun quyidagi tartib belgilansin: har chorakda majburiy inventarizatsiya o'tkazilsin va natijalar inventarizatsiya komissiyasi tomonidan imzolangan aktlarda rasmiylashtirilsin; tabiiy kamayish normativlari (savdo tarmoqlariga xos) Moliya vazirligi me'yorlariga muvofiq korxona ichki nizomida tasdiqlangan bo'lishi kerak; normativdan ortiq yo'qotishlar uchun moddiy mas'ul shaxsdan yozma tushuntirish olinib, tegishli hujjatlar (dalolatnoma, ekspertiza xulosasi) tuzilsin; hujjatlashtirilgan yo'qotishlar 9600

"Boshqa xarajatlar" hisobvarag'iga silinib, soliq hisobida chegirib tashlansin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *БҲМС №4 "Товар-моддий захираларнинг ҳисоби тўғрисида"*. Toshkent, 2004 (2021 yilda yangilangan).
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *БҲМС №21 "Харажатлар"*. Toshkent, 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi. *Soliq kodeksi*. 30.12.2019 yil, №ЎРҚ-599-son (2024 yil iyungacha bo'lgan o'zgartirishlar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2022 yildagi PQ-224-son *"O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"* qarori.
5. Deloitte. *IFRS 16 Leases: A Closer Look*. London: Deloitte Touche Tohmatsu Limited, 2023. URL: https://www.iasplus.com/en/standards/ifrs/ifrs16
6. Tursunov B.A. *O'zbekistonda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga o'tkazishning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: TDIU, 2020. — 284 b.
7. Yusupov O.A., Raximov I.N. "Savdo korxonalarida xarajatlarni boshqarish va hisobga olishning zaif tomonlari" // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. Toshkent, 2022. №5. — B. 78—93.
8. Nazarov B.A., Holiqov F.B. "O'zbekiston savdo korxonalarida IFRS 16 ning tatbiq etilishi: muammolar va yechimlar" // *Samarqand iqtisodiyot va servis instituti ilmiy to'plami*. 2023. №3. — B. 51—66.
9. Karimov A.R. "Savdo korxonalarida ABC xarajatlash usulini joriy etish imkoniyatlari" // *Soliq va iqtisodiyot*. Toshkent, 2023. №2. — B. 44—55.
10. Xolmatov T.N. "Savdo tarmoqlarida umumxo'jalik xarajatlarini taqsimlash metodologiyasi" // *O'zbekiston Moliya instituti ilmiy axboroti*. 2022. №4. — B. 112—124.